# MAKTAB BILIM O'CHOG'I. YOSHLARIMIZDA IMKONIYATLAR CHEKSIZ!

Kunduz Matmuratova
Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi 4-maktabning qoraqalpoq tili (davlat tili) fani o'qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7604835

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda yoshlarimizda imkoniyatlar cheksizligi bolalarni tarbiyalash bo'yicha oila va maktab o'rtasidagi hamkorligning asosiy qoida va shakllari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kichik maktab yoshi, bola, ota-ona, pedagog, oila, maktab, boshlang'ich ta'lim, tarbiya, o'qish, kitob, qobiliyat, kreativlik.

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются основные правила и формы сотрудничества семьи и школы в воспитании детей.

*Ключевые слова:* младший школьный возраст, ребенок, родитель, воспитатель, семья, школа, начальное образование, воспитание, чтение, книга,способности, креативность.

Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi kunda ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotgan hozirgi kunda mehnat tarbiyasida yoshlarni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Chunki, mehnat kelajak avlodni aqliy, ahloqiy va estetik jihatdan tarbiyalaydi, ularning dunyoqarashini hamda mustahkam iroda sifatlarini shakllantiradi. Irodaviy sifatlarni tarbiyalash, ularga mehnat ko'nikmalarini singdirish g'oyat murakkab jarayon hisoblanadi. O'quvchilar mehnat tarbiyasini tashkil etishda maktabning roli qanchalik katta ahamiyatga ega bo_lmasin, oila, mahalla hamkorligisiz bu ishni muvaffaqiyatli hal etib bo'lmaydi. Zero, oila birinchi tarbiya o'chog'i, birinchi muallim, bolaning mehnatga layoqatini, qobiliyatini, ijtimoiy qiziqishini uyg'otadigan dastlabki tarbiya maskani bo'lsa, mahalla uni rivojlanishi, ranaq topishi uchun muhit hisoblandi.

Sog'lom odamlarda genomda 46 ta xromosoma mavjud - 23 ta otadan va 23ta onadan, irsiy xususiyatlarni olib yuradi. Genomda jinsni aniqlaydigan 22 ta autosoma va bir juft jinsiy xromosoma mavjud (ayollarda XX va erkaklarda XV). Har bir xromosoma bizning tanamiz hujayralari qanday ko'rinishi va ishlashi kerakligini aytadigan barcha genetik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "katta kitob" dir. Ko'plab tibbiy-psixologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra,

embrion ona qornida paydo bo'lishi bilan 70% onadan, 30% otadan gen orqali shakllana boradi. Bola embrionlik davrida onadan nafaqat ozuqalanadi, balki unga onaning ruhiy holati va tashqi muhit ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni onaning xursandchiligiyu turli xil stress holatlari embrionga o'z ta'sirini ko'rsatmay qo'ymaydi. Shuningdek, otadagi tashqi qiyofa, undagi ayrim psixologik xususiyatlar va qobilyatlar gen orqali bolaga o'tadi. Ona vujudida paydo bo'lgandan ona orqali ozuqalanib rivojlanadi. Ona homilador paytida ma'sulyati yanada ortadi. Embrionga onaning har bir holati juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Ayniqsa, 34 yoshdan keyin tug'ishni istagan ayollar uchun implantatsiyadan oldingi genetik diagnostika o'tkazish tavsiya etiladi. Sababi bu yoshda, homiladorlikning tabiiy boshlanishi bilan genetik anomaliyalari bo'lgan bola tug'ilishi xavfi kuzatiladi.

Yani inson etuklik yoshiga qadam bosishi bilan undagi urug'lar asta-sekin qariy boshlaydi. Shu sababli u hayot davomida turli xil salbiy omillarga duchor bo'ladi:

- ✓ onaning yomon odatlari (chekishi, spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi);
- ✓ surunkali kasalliklar;
- ✓ dori-darmonlar bilan davolanishi;
- ✓ zararli mehnat sharoitlari (kimyoviy reagentlar, yuqori harorat ko'rinishidagi fizik omillar, tebranish, ionlashtiruvchi nurlanish, elektromagnit maydonlar);
- ✓ yomon ekologiya.

Suning uchun homilador ayolni turli xil stress va siqilishlardan asrash lozim.

Bolani rivojlanishiga bu stresslarning ahamyati katta.

Demak, homilador ayolga barcha oila a'zolarining e'tibori juda muxum. Kimgadir bu shunchaki doimo eshitib yurgan shunchaki so'zdir. Lekin homilador ayolga bolani ruxan va jismonan sog'lom tug'ilishi uchun juda katta parvarish kerak boladi. Biz oddiygina etayotgan stress va siqilishlar oqibatida bolani qaysidir orgini to'liq rivojlanmay qolishiga , yoki bolani miyyasi rivojlanishiga ta'siri katta. Xop deylik homilador ayol oila a'zolarining e'zozida farzandini dunyoga keltirdi. Endi ma'sulyat 2 barobar ortadi. Bekorga biz bolani o'sib, unib, rivojlanishida onani 70% ta'siri bo'ladi demadik. Chunki ona endi farzandini suti bilan ozuqalantirganda tinch xolatda turli xil duolar etib ozuqalantirsa foydadan xoli bo'lmaydi. Agarda asabda, siqilib , yig'lab bolani ozuqalantirsa bu xolat albatta bolaga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bola xam o'z navbatida tajang, yig'lab bezovta bo'ladi.

Bejizga xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyilmagan. Bu hayotda real isbotini topgan haqiqatdir. Bola ilk tarbiyasini albatta birinchi oilasidan oladi. Bola katta bo'layotganda oilasidagi xar bir insondan o'z formulasini oladi. Formula degani oiladagi har bir insonning yaxshi va yomon fazilatlari bolaga namuna bo'ladi.Bola shu fazilatlarni xislatlarni ko'rib o'z dunyoqarashi doirasida o'ziga xulosa chiqaradi. Bundan ko'rinib turibdiki, farzand tarbiyasida oiladi har bir insonning hissasi katta.

Farzand tarbiyasida avvalam bor ota-onasi kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bola tarbiyasida ota-onalar diniy, dunyoviy va psixologik bilim egallashi judamuhim.

“Farzand tarbiyasida ota-onaning fikri bir joydan chiqishi kerak”. Otalar onalarni yoki onalar otalarni eshita olishsin, bir-birini kerakli paytda qo’llab-quvvatlay olishsin, farzandga eshittirmasdan bola tarbiyasi haqida alohida maslahat qilib, bahs-munozara qilishsin. Bolada tarafkashlikni uyg’otmaslik uchun ikkisi bir to’xtamga kela olishi kerak. Chunki bola biror ishni qilayotganda agar bu ishni qilsam, dadam qarshi tursayam, onam tarafimni oladi, degan tushuncha bilan ulg’ayadi yoki teskarisi bo’lishi ham mumkin. Shu sababli ota-onaning fikri bir nuqtaga kelib, hamfikr bo’la olishi kerak.

Ota-onaning hamfikrligi – juda katta yutuq. Ba’zida yaqin dugonalarimga farzand tarbiyasida ma’lum usulni qo’llab ko’rishni, foydali to’garaklarga qo’yishni tavsiya qilaman. Shunda: “Yo’q, bunga turmush o’rtog’im ruxsat bermaydi”, deganjavob olaman. Bo’ldi, shu bilan oldinga yo’l yo’q.

Gap ruxsat berish yoki taqiqda emas, muhimi – ma’lum fikrni o’zaro hamjihat bo’lib bir-biriga uqtira olishda, deb o’ylayman. Agar ona otaga bo’ysunmasa yoki ota kerak paytda onani qo’llab-quvvatlamasa, u yerda hech qanday tarbiya usuli foyda bermaydi.

Ota-onaning hamjihatligi dunyoqarashningyaqinroq bo’lishidir, aslida. Hayotga munosabati yaqinroq bo’lgan insonlar bitta fikrga kelishi osonroq bo’ladi.Buvi-buvalar bilan birga yashaydigan katta oilalarda odatda bola kim uning tarafini olsa, o’shandan panoh izlaydi va aytganini qildirishga harakat qiladi.SHuning uchun ham bir uyda yashovchi buvi-buvalar, ota-ona farzand tarbiyasida yakdil fikrga kela olishlari kerak. Ana shunda tarbiyaning ildizi mustahkam bo’ladi.

— Ota-ona bir-birini tushunmasa, buni farzandlariga yetkazishi qiyin bo’ladi. Ota bir fikrni aytsa-yu, ona uni ma’qullamasa yoki onaning gapini ota qo’llab-quvvatlamasa, bu, albatta, farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir o’tkazishi mumkin. Aytaylik, ota farzandning tadbirkor bo’lishini xohlaydi, ona esa qarshi

bunga.

Farzand kimga yon bosishini bilmay ikkilanadi, ya'ni tarafkashlik paydo bo'lishi mumkin.

Farzand o'ylaydi: otam tarafimni olyapti, shuning uchun tadbirkor bo'laman. Balki onasi to'g'riroq yo'lni aytayotgan bo'lishi mumkin, lekin fikrlar qarama-qarshiligi bolada ikkilanishni keltirib chiqarishi va oxir-oqibat noto'g'ri yo'lni tanlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Har bir oilada past-balandliklar bo'ladi. Ularni yengib o'tishda bir-birini tushunish juda muhim. Farzand tarbiyasida ham o'zaro tushunish, fikrini hurmat qilish ahamiyati katta. Ko'p oilalarda ota oilani boqish uchun asosiy vaqtini ko'chada o'tkazadi, shu sababli ko'p vaqt ajratolmaydi. Shunday bo'lsa ham ota rafiqasini kerak paytda qo'llab-quvvatlay olishi, yordam berishi kerak.

Farzand tarbiyasida hammasini onaga yuklab qo'yish noto'g'ri. Chunki farzandlar onadan, otadan tarbiyani turlicha qabul qilishadi. Ota-onaning tarbiyada alohida o'rni bor.

Farzand tarbiyasida mukammallik talab qilish – xato! Tasavvur qiling, 7-8 yashar qiz opasiga qarab idish yuvgisi kelib qoldi. O'ziga yangi ko'nikma olish uchun buniyam sinab ko'rgisi keladi. Ona bu paytda idishini ayab: "Sindirib qo'ysang, yuvma. Qo'y, sabr qilib tur, katta bo'lsang yuvasan", deb yana shashtini qaytaradi. Shu orqali yangi narsani o'rganishga bo'lgan ishtiyoq o'lyapti.

Mana shu holatda bolaning yangi narsani o'rganmoqchi bo'lgan boshlang'ich bosqichidanoq undan mukammallikni talab qilamiz. Chunki biz ota-ona, shaxs sifatida shakllanib bo'ldik. Bizga oddiy ko'ringan narsa bolaga qiyin ekanligini his qilmaymiz. Shuni ichimizdan o'tkazmaymiz. Va bu holatda bola bizdan xafa bo'lishga to'liq haqli. Bola o'ziga bo'lgan ishonchi kamayib ketishi, xafa bo'lish holatlari bo'ladi.

Bolaga nisbatan boshida katta maqsadni qo'ymaylik. To'g'ri, maksimalizm kerak, bolani unga intiltirish zarur. Lekin buni boshidan qilish kerakmas. Buni sekinlik bilan, bosqichma-bosqich o'tkazish lozim.

Bolangizning kelajagini o'ylasangiz, uni urmang! Hayotga tayyorlamoqchi bo'lib, ota-onalar jismoniy kuch ishlatib, qattiqqo'llik qilib qo'yishadi. Tarbiya bo'yicha kitoblarni o'qib chiqqanimda, hech qaysi manbada bolani urib tarbiyalash oqlanmagan. Ko'pchilik ota-onalar bolani urib tarbiyalashadi, chunki bu yo'l orqali bolani bo'ysundirish oson. Bolaning ojizligidan foydalanishadi. Bola sizga qarshi so'z bilan javob qaytarolmaydi, qarshi kurasholmaydi.

Urib jazolash bolani sindiradi. O'sayotgan daraxtni to'g'rilayman deb, sindirib qo'ya qolishadi. Bolani bitta uradi, yig'laydi, lekin ota-ona aytganini qiladi. Vaholanki, uning kelajagini o'ylashmaydi, uning ichki kechinmalarini his qilib ko'rishmaydi. Bola ham xato qiladi, xato qilish insonga xos.

Bolani urish u yoqda tursin, qo'pol gap bilan tarbiyalashning o'zini qoralayman. Bolaning xatosini aytish kerak, faqat uning ma'lum usullari bor. Buning uchun katta sabr kerak.

O'rganish orqali erishiladigan 4 natija

— Yaqinda kitobdan bildimki, o'rganish jarayonida 4 xil natijaga erisharkanmiz. Birinchisi, mashg'ulotdan oladigan bilim va ko'nikmalar. Ikkinchi natija bolaning mustaqil bilim olish qobiliyati kuchayishidir. Buni bola ulg'ayib boravergach, miqdorini ko'paytirib boraverish kerak.

Uchinchi natija bolaning o'rganish jarayonida oladigan ruhiy holati, ya'ni hissiyotidir. Aniqroq qilib aytganda, bolaning o'sha paytdan oladigan qoniqish hissi, biror ishni amalga oshirganda ishonchining ortishi yoki aksincha, hafsalasi pir bo'lishi. Bu ham bir natija. Har doim ham ijobiy natija bo'lmaydi.

To'rtinchi natija – ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat. Biz har doim ham farzandimiz bilan gaplashishga vaqt topolmasligimiz mumkin. Lekin birgalikda ma'lum bir mashg'ulotni qilish orqali o'rtadagi munosabatni o'rnatamiz.

Ota-onalar faqat birinchi natijaga e'tibor berisharkan. Qolgan uchta natija borliginiyam bilmas ekanmiz. Aynan oxirgi to'rtinchi natija ota-ona bilan farzand o'rtasidagi ko'prik vazifasini o'tarkan.

Bola faqatgina birinchi natija, ya'ni bilimlarni o'zlashtirib boraversa, kattaroq natijalarga erisholmas ekan. Olayotgan bilimi, ko'nikmasi o'sib bormas ekan. Bolani tarbiya qilayotganda ona farzandiga turli xil rivoyatlarni etib nima yaxshi-yunima yomonligini nasihat qilib, yoki namuna qilib tushuntirib berilsa bola o'z xulosasini oladi.

Farzandlarimizning muvaffaqiyatga erishishida quyidagi uchta tamoyilni qo'llashimiz lozim:

Birinchi - uni kitob o'qishga o'ragatish lozim. Har qanday kitob emas, yoshiga, mavzuga doir, dolzarb bo'lib turgan kitobni tanlay olish muhim. Bunda, albatta, mag'zini chaqa olish kerak. Nima uchun bu kitobni o'qidim, degan savolni berishi kerak. O'sha kitobdagi qiziq, kerakli, deb berilgan fikrlarni daftarga yozib borishi kerak.

Ikki katta farzandimga daftar tuttirganman, o'qigan kitoblari haqida yozib borishadi. Vaqt o'tgach, daftarni varaqlab, qaysi kitobdan qanday xulosa olganini bilib olsa bo'ladi. Bu o'sha paytda bo'lmasa, keyinchalik yordam

berishi mumkin.
Ikkinchi tamoyil, inson hayotda yoza bilishi kerak. Bu nima degani? Husnixat, chiroyli yoza bilish deganimas. Yoza bilish – imloviy va uslubiy xatolarsiz yozishdir. Oddiy misol: ishga kirayotganda ariza yozamiz, bizni tanimagan odam ham ana shu arizamizdan bizga baho berishi mumkin.
Inson fikrini jamlab, chiroyli yoza bilishi zarur. Albatta, buning uchun jurnalist, yozuvchi bo'lish shartmas. Har qanday kasbdagi inson yoza olishi kerak. Bu jamiyatdagi mavqeyingizni bir pog'ona yuqoriga ko'tarib beradi.
Oxirgi tamoyil – o'z fikrini og'zaki nutqda ravon ayta olish. Bu ham juda muhim. Bolaga suhbat orqali hayotda juda ko'p narsalarga erishishi mumkinligini tushuntirish kerak. Masalan biror bir kasbni tanlash yoki oliy ta'lim muassasasiga kirishda suhbatdan o'tishligini, ushbu suhbat jarayonida fikrini chiroyli yetkazib berish bilan e'tiborni tortishi mumkinligini uqtirish lozim. Suhbatda bilimi bor bo'lgan inson emas, bilimini ko'rsata oladigangina yutib chiqadi.
Demak, har biro ta-ona bolaning har bir savolini javobsiz qoldirmasligi kerak. Bola bu jarayonda bilish orqali o'z dunyoqarashini shakllantiradi. Shuning uchun diniy va dunyoviy bilim bola tarbiyasida juda muhim hisoblanadi.
Bola psixologiyasi mana shu bilimlarni qachon va qay tarzda qo'llashni o'rgatadi. Ota-ona farzandli bo'lganlaridan so'ng farzandlari oldida o'z burchlarini to'liq bajarilishi lozim. Onaning burchi 9 oy o'z vujududa ko'tarib uni dunyoga keltirish va solih va soliha qilib tarbiyalashdir. Otaning burchi esa yaxshi ism qo'yish
, tarbiya qilish, moddiy ta'minlash, balog'at yoshiga yetganidan so'ng soliha qizga uylantirish yoki solih yigitga uzatish.
Bundan tashqari oilamizadagi yoshi katta kopni korgan va bilgan bobo va buvijonlarimiz ham o'z nasihatlari bilan farzandlarimizaga juda katta tarbiya beradilar.
Farzandlarimizni jamiyatga qo'shish uchun ham avvalambor bog'chaga beramiz. Bog'chaga borgan bolaning nisbatan dunyoqarashi keng bo'ladi. Chunki u yerda o'z tengdoshlari bilan tanishadi. Mehribon bog'cha opalarimizada dunyoni , olamni o'rgatishadi. U kim? U nima? Savollariga javoblar,turli xil ranglar bilan rasmlar chizib ilk ta'limlarini oladilar. Undan so'ng hammamiz uchun hayotda juda muhim va unitilmas onglarni maktabda davvom ettiramiza. Eng mashaqqatli va hayotimiz poydevori bu maktabda "Boshlang'ich" sinfida bo'ladi.
"Boshlang'ich ta'lim" o'qituvchilari judayam mashaqqatli va sharafli

o'qituvchilardir. Har bir inson hech qachon boshlang'ich o'qituvchisini esidan chiqarmasa kerak. Shuning uchun boshlang'ich o'qituvchilari judayam farosatli, bilimli o'z imidjiga ega bo'lgan va muhumi psixolog bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda "boshlang'ich ta'lim" o'qituvchilariga talab kuchli. Chunki boshlang'ich ta'lim pedagogi bolaning keyingi hayotini davom ettirishda ham muhim o'rin egallaydi. "Boshlang'ich ta'lim" pedagogi sinfdagi 30 ta bolaga ikkinchi ona hisoblanadi. Pedagog shu 30 ta bolaning ota-onasi, oilasi bilan yaqindan tanishishi lozim. Bola qanday muhitdan keldi, uni xarakteri qanaqa rivojlangan shularni o'rganib chiqishi juda muhimdir. 30 ta bola 30 xil xarakterga ega. Ularning bilim olish ko'nikmalari xam turlicha. Kimdir aqilli, zehni o'tkir kimdir sho'x, topolonchi yana qaysidir bola uyalchan o'z bilimini chiqazib berolmaydi yoki oilaviy sharoitiga ko'ra boshqa bolalardan orqada qolgan bolishi mumkin. Pedagog shularni aniqlab olishi kerak.

Bolalarni jamiyatga qo'shishga o'z teng qurlari bilan o'zaro aloqalar o'rnata olishida pedagogning o'rni katta. Bola topolonchi sho'x bolishi mumkin ammo zexni o'tkir aqilli ham bo'ladi. Bunday bolalarga ko'proq ma'sulyat berib sinfdagi o'rtoqlariga namuna qilib ko'rsatish kerak. Shunda bola o'qituvchisini maqtovidan xursand bo'lib, o'rtoqlari oldida uyalib qolmasligi uchun ularga namuna bolishga yana maqtov eshitishga harakat qiladi.

Yana bir bola aqilli zehnli ammo uni chiqarib bera olmaydi. Pedagog bu bolani "Men"nini rivojlantirishi har darsda savol berib turgizishi lozim. Shunda bola bugun mendan o'qituvchim yana so'riydila dib o'zidagi bilimini chiqazib berishga xarakat qiladi vao'z ustida ishlay boshlaydi. Qaysidir bola mexrga a'loxida e'tiborgamuhtoj bo'ladi.

Bolaga mehr berib o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirib boshqa tengdoshlariga qo'shishi kerak. Shuning uchun ham pedagog eng avval psixolog bo'lishi bolani tushina olishi kerak. Real hayotdan oladigan bo'lsak bola maktabga chiqqanida o'qituvchisini haf bir so'zi qonun hisoblanadi. Onasiga erkalik qilishi, ettgan gaplariga quloq solmasligi mumkin. Lekin o'qituvchisini har bir so'zi bola uchun muhim hisoblanadi va o'z vaqtida har bir vazifasini bajarishga harakat qiladi.Shuning uchun hozirgi kunda "Boshlang'ich ta'lim" o'qituvchilariga talab kuchli. "Boshlang'ich ta'lim" oqituvchisi avvalambor o'zi odobli, ozoda kiyinadigan, bilimli bolalarga o'rnak bo'lishi kerak.

Har bir bola o'zini o'qitivchisiga o'xshashg harakat qiladi. Shuning uchun pedagog o'zi namuna bo'lgan holda ularning ota-onalari bilan borga bolaga tog'ri ta'lim tarbiya yo'nalishini berishi darkor. Aksariyat bolalarning

ochilmagan qirralari, e'stddodlari shu boshlang'ich sinfida ochiladi. Nima uchun pedagogni bolani tarbiyasida kelajagida o'rni muhim deymiz.

Hech qaysi bola yaxshi yoki yomon bolib tug'ulmaydi. Bola tug'ilgandan so'ng tashqi muhit ta'sirida shakllana boshlagan. Pedagoglar bola tarbiyasida ularning ota onalari bn birga ishlaganlari yaxshi natina beradi. Axir qars ikki qo'ldanchiqadiku.

Xulosa qilib aytganda, pedagoglar va ota-onalar bolani o'sib rivojlanishida o'z etiborini va mehrini ayamasliklari lozim.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, bugungi kundagi mamlakat manfaati uchun kiritiladigan eng katta investitsiya - bu bolaga tikilgan investitsiya hisoblanadi. Chunki xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq. Bolani qiziqishlariga, bilim olishiga tikilgan pul va mehnat albatta kelajakda o'z samarasini beradi. Har biro ta-ona bolaning hayotiga ma'no berishi, unga har bir ishda madad bo'lishi juda ham muhim.

## References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi.T.: 1994.
3. To‘rayeva O. Oylaviy hayot etikasi va psixologiyasi. – T.: 1998.
4. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda ota-onalarning o'rni // Международный научно-образовательный электронный журнал.
5. Usmonov Maxsud Tulqin o’g’li. OZIQ-OVQAT SANOATINING DOLZARBLIGI VA SAMARADORLIGI. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY International scientific-online conference. https://doi.org/10.5281/zenodo.7251090
6. Usmonov Maxsud Tulqin o’g’li. ROBOTOTEXNIKA MAJMUALARINING AVTOMATLASHTIRILGAN ELEKTR YURITMALARINI QO'LLANILISH SOHALARI. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference.Том 2 № 2 (2023): Академические исследования в современной науке. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
7. Usmonov Maxsud Tulqin o’g’li. SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINING INSONIYAT FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference.Том 2 № 2 (2023): Академические исследования в современной науке. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive

8. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. КАК ПОСТРОИТЬ ЛИНИЮ В ПОЛЯРНОЙ СИСТЕМЕ КООРДИНАТ. ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference.Том 2 № 2 (2023): Академические исследования в современной науке. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
9. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. AXBOROT OQIMINI SHAKLLANTIRISHDA WEB ILOVALARNI YARATISH VA QO'LLASH USULLARI. CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES International scientific-online conference.Том 2 № 1 (2023): Current approaches and new research in modern sciences. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
10. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. MA'LUMOTLAR BAZASI FANINI OLIY TA'LIM TALABALARIGA O'QITISHDAGI QO'YILGAN ASOSIY TALABLAR. CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES International scientific-online conference.Том 2 № 1 (2023): Current approaches and new research in modern sciences. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
11. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. FORMAL TILLAR VA GRAMMATIKA.KOMPYUTER LINGVISTIKASINI KASHF ETILISHIDAGI MATEMATIK MODELLAR KO'RINISHI. CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES International scientific-online conference.Том 2 № 1 (2023): Current approaches and new research in modern sciences. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
12. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. ZAMONAVIY DASTURLASH TILLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Development and innovations in science. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
13. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. MAKTABDA INFORMATIKA FAN VA O'QUV PREDMETI SIFATIDA O'QITILISHI. DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Development and innovations in science. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
14. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. ВЕКТОРНОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ ВЕКТОРОВ. СМЕШАННОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ ВЕКТОРОВ. DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Development and innovations in science. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive

15. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. DEVELOPMENT OF WEB-APPLICATIONS FOR THE BUREAU FOR THE REPAIR OF APARTMENTS. DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Development and innovations in science. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
16. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. DASTURLASH TILLARI VA PYTHON DASTURLASH TILINI O'RNATISH. DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Development and innovations in science. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
17. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. PEDAGOGLARGA DASTURLASH TILINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. МЕЖДУРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ НАУК. Том 2 № 1 (2023): Международная конференция академических наук. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
18. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. JAVA DASTURLASH MUHITIDA SHART OPERATORLARI (IF, SWITCH CASE). МЕЖДУРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ НАУК. Том 2 № 1 (2023): Международная конференция академических наук. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
19. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. ФОРМУЛЫ ДЕЛЕНИЯ ОТРЕЗКА В ДАННОМ ОТНОШЕНИИ. ФОРМУЛЫ КООРДИНАТ СЕРЕДИНЫ ОТРЕЗКА. МЕЖДУРОДНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ НАУК. Том 2 № 1 (2023): Международная конференция академических наук. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
20. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. MAKTAB GEOMETRIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA DASTURLASH TILLARIDAN FOYDALANISH. INNOVATIVE RESEARCH IN SCIENCE International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Инновационные исследования в науке. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
21. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. MOBIL ALOQA VOSITALARINING OPERATSION TIZIMLARI TAHLILI. INNOVATIVE RESEARCH IN SCIENCE International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Инновационные исследования в науке. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
22. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. ИНТЕРВАЛЬНЫЙ ВАРИАЦИОННЫЙ РЯД. ГИСТОГРАММА ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ЧАСТОТ. INNOVATIVE RESEARCH IN

SCIENCE International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Инновационные исследования в науке. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive

23. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. DASTURLASH TILLARI VA PYTHON DASTURLASH TILINI O'RNATISH. MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. Vol. 2 No. 1 (2023): Models and methods in modern science. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive

24. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. PHP DASTURLASH TILI VA UNING IMKONIYATLARI. MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. Vol. 2 No. 1 (2023): Models and methods in modern science. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive

25. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. ДИСКРЕТНЫЙ ВАРИАЦИОННЫЙ РЯД. ПОЛИГОН ЧАСТОТ И ЭМПИРИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ. MODELS AND METHODS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. Vol. 2 No. 1 (2023): Models and methods in modern science. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive

26. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. WEB ILOVALAR DASTURIY TAMINOTINI YARATISH. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Science and innovation in the education system. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive

27. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. МИКРОПРОЦЕССОРНАЯ СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ ГЕНЕРАТОРОМ СИГНАЛОВ. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Science and innovation in the education system. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive

28. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. DASTURLASHTIRISHDA INTERFAOL TA'LIM SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Solution of social problems in management and economy. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive

29. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. ROBOTOTEXNIKA SOHASINI MAKTABLARDA JORIY QILISH SAMARADORLIGI. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY International scientific-online

conference. Том 2 № 1 (2023): Solution of social problems in management and economy. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
30. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. OZIQ-OVQAT SANOATINING DOLZARBLIGI VA SAMARADORLIGI. SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY International scientific-online conference. Том 2 № 1 (2023): Solution of social problems in management and economy. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
31. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. O'QUVCHILARGA PYTHON TILIDA REKURSIV DASTURLASHNI O'RGATISH VA UNING SAMARALI USULLARI. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES International scientific-online conference. Том 2 № 2 (2023): Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
32. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. KOMPYUTER VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIGA MUNOSABAT. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES International scientific-online conference. Том 2 № 2 (2023): Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
33. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. GEOMETRIC MODELING AND VISUALIZATION OF 2D AND 3D FRACTAL STRUCTURED SHAPES. THEORETICAL ASPECTS IN THE FORMATION OF PEDAGOGICAL SCIENCES International scientific-online conference. Том 2 № 2 (2023): Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. http://www.econferences.ru/index.php/tafps/issue/archive
34. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. DETERMINANTLAR NAZARIYASI. Analytical Journal of Education and Development Volume: 02 Issue: 12 | Dec-2022 ISSN: 2181-2624 www.sciencebox.uz
35. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. INDENTIFICATION AND AUTENTIFICATION. European Journal of Molecular & Clinical Medicine (EJMCM) ISSN: 2515-8260 Volume 10, Issue 01, 2023. https://www.ejmcm.com/
36. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. Teylor qatori. Elementar funksiyalarni darajali qatorlarga yoyish. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1. www.openscience.uz / ISSN 2181-0842.
37. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. Sonli qatorlar. (Musbat hadli qatorlarning yaqinlashish teoremalari. Leybnis teoremasi, absolyut va shartli yaqinlashish.).

"Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1. www.openscience.uz / ISSN 2181-0842.
38. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. Darajali qatorlar. Darajali qatorlarning yaqinlashish radiusi va sohasi. Teylor formulasi va qatori. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1. www.openscience.uz / ISSN 2181-0842.
39. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. Funksional ketma-ketliklar va qatorlarning tekis yaqinlashishi. Koshi kriteriysi. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1. www.openscience.uz / ISSN 2181-0842.
40. Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li. Furye qatori. Funksiyalarni Furye qatoriga yoyish. "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 (SJIF) January 2023 / Volume 4 Issue 1. www.openscience.uz / ISSN 2181-0842.